O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

21-OKTABR - O‘ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGANLIGINING 35 YILLIGI MUNOSABATI BILAN

“ZAMONAVIY O‘ZBEK TILINING ASOSIY MASALALARI VA DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI AN’ANAVIY

V ILMIY-AMALIY ANJUMANI

DENOV-2024

“ZAMONAVIY O‘ZBEK TILINING ASOSIY MASALALARI VA DOLZARB MUAMMOLARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA V ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI TO‘PLAMI

DENOV – 2024

UO‘K 811.512.133’0
KBK 81.2 O‘zb
S 160

Ushbu to‘plamda «**Zamonaviy o‘zbek tilining asosiy masalalari va dolzarb muammolari**» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanga yuborilgan maqolalar jamlangan. To‘plamda o‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik, amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika muammolari, til ta’limi, o‘zbek tilining o‘qitilishi va o‘zaro hamkorlik, madaniyatlararo muloqotda o‘zbek tilining o‘rni, o‘zbek tilini davlat tili sifatida har tomonlama rivojlantirish, o‘zbek tili va turkiy tillar tarixi, o‘zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan o‘zaro aloqalari tadqiqi, lug‘atshunoslik, atamashunoslik, til korpusi kabi o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari haqida so‘z yuritiladi. To‘plam filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Muassis:
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION
FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM
BOSH MUHARRIR:
Oybek Abdumo‘minovich Ruziyev,
iqtisod fanlari nomzodi
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Suvonov Zavqiddin, filologiya fanlari doktori (DcS).
Mas’ul muharrir:
Sanjar Amirqulov, katta o‘qituvchi
Akbarali Boymirzayev, katta o‘qituvchi
Ilmiy kotib:
Qahramon Ro‘ziyev, o‘qituvchi

AYOL SHOIRALAR SHE`RIYATIDA HIJRON VA ILTIJO MOTIVI

Nabiyeva Nodira Saidovna
Surxondaryo viloyati Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

UDK: 8.1751

Annotatsiya

O`zbek ayol shoiralari o`zining tematikasi bilan boshqa janr ijodkorlaridan ajralib turadi. Hijron, ayriliq hamda muhabbat mavzulari Nodirabegim ijodidan boshlanib bugungi mustaqillik shoiralari ijodida ham davom etib kelmoqda. Mazkur maqolada ushbu jarayonning yuzaga kelish hamda shakllanish asoslari, hijron motivining o`ziga xos qirralari muhokamaga tortiladi.

Kalit so‘zlar: Shoira, ayriliq, muhabbat, metod, she`riyat, ijod.

MOTIF OF EMIGRATION AND PLEA IN POETRY OF FEMALE POETS

Abstract

Uzbek female poets are distinguished from other genres by their themes. The themes of emigration, separation and love continue in the work of today's poets of independence, starting with Nodirabegim's work. This article discusses the origins and formation of this process, the specific aspects of the motive of emigration.

Key words: Poet, separation, love, method, poetry, creativity.

KIRISH

Jahon adabiyotida ham, milliy adabiyotda ham ishq-muhabbat, visol va hijron, sadoqat-u xiyonat mavzulari antik davrlardan buyon ijodkorlar ruhiyatini larzaga solib, tuyg‘ularini jo‘nbushga keltirib, goh halovatda tutsa, goh oromini og‘rilab, asrlar osha har oshiq qalbida sayqallanib, har ijodkor ijodida yangilanib,jilvalanib kelayotgan mavzulardan biridir. Asli dunyo muhabbatdan tug‘ilgan, azal ishq ayriliq yomg‘irlariga cho‘milgan, hijron shamollarida sarbasar kezgan…

ADABIYOTLAR SHARHI

Qadimgi dunyo adabiyoti vakillari bo‘lmish Sapfo hamda Alkey ijodining asosiy qismini ham ishq, ayriliq mavzulari tashkil etadi. O‘zbek mumtoz adabiyotimiz durdonalarini ham aynan muhabbat va hijron mavzularida bitilgan she’rlar salmoqli o‘rin egallaydi. Shoira lirik merosiga oid turli yo‘nalishda tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Nodira devonlarining nashrlari Istiqlolga qadar va undan keyin amalga oshirildi. 1958 yilda A. Qayumov tomonidan “Nodira. She’rlar” [1], Mahbuba Qodirova tomonidan 1963 yilda “Nodira. Asarlar” devonining I va II jildlari [2], 1979-yilda “Nodira-Komila” devoni, 1979 yilda “Sharq klassik merosidan” rukni ostida “Nodira she’riyatidan”, 2001 yilda “Nodira-Komila” kabi o‘nlab nashrlari amalga oshirildi [3]. Albatta, bu nashrlarning dunyo yuzini ko‘rishi katta mehnatning natijasi bo‘lib, matnshunos olimlardan fidoyilikni talab qiladi. Bugungi kunda hur O‘zbekistonimizning zabardast shoiralariga aylangan Muhtarama Ulug‘ova, Oydin Hojieva, Qutlibeka Rahimboeva, Sharifa Salimova, Gulchehra Jo‘raeva, Inobat Oydin va ko‘pgina boshqa shoiralar Zulfiyaxonim “kashfiyotlari” dir. Zulfiyaxoni ham rahbarlikni, ham onalikni, ham kamtarin

insonlikni, ham sadoqatli yorlikni oliy darajada o‘zida uyg‘unlashtira olgan xassos shoira edilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mumtoz g‘azaliyotda ma’shuqa ko‘zi turli tashbehlar bilan tasvirlanadi. Oshiq ma’shuqa ko‘zlarining zulmkorligidan zorlanadi, undan muruvvat kutadi. Bu tasvirdan foydalanmagan ijodkorlar bo‘lmasa kerak. Ma’shuqa ko‘zini “sho‘x va go‘zal” sifati bilan vasf qilgan Nodira uning zulmdan yiroq bo‘lishini so‘raydi. Baytda “mardum” so‘zi “odamlar, kishilar” hamda “ko‘z qorachig‘i” ma’nosidagi so‘z. Baytning mazmuni har ikkala ma’noni ham qabul qiladi. Bu esa iyhom san’atini hosil qiladi.

Tirdoba erur ko‘zimning yoshi,Oshiqni halok etar bu girdob.

Birinchi misradagi **“tirdoba”** so‘zi 1979 yilgi nashrida:

Girdob erur ko‘zimning yoshi,

Oshiqni halok etar bu girdob- **“girdob”** shaklida uchraydi. **“Girdob”**so‘zi “suvdagi chuqurlik, quyun”degan ma’noni anglatadi. “Tirdoba” so‘zining izohi esa lug‘atlarda kuzatilmaydi. “Girdob” so‘zi baytda ikki o‘rinda qo‘llangan bo‘lib, takrorga asoslangan radd- ul-sadr ilal –ajuz (Sadrning ajuzda takrorlanishi) hosil qilgan.

Nodiraning **“Yor la’lin yod etarmen”** deya boshlanuvchi g‘azali nashrida ham tavvofutli o‘rinlar kuzatiladi. G‘azalning to‘rtinchi bayti 1958 yilgi nashrda:

Sovrulurman hajr vodiysi aro, Majnun **kibi,**

Xizr qilg‘ondek vatan sarchashmai hayvon ko‘rub.

Mazkur bayt 1963 yilgi nashrda:

Sovrulurman hajr vodiysi aro, Majnun **meni,**

Xizr qilg‘ondek vatan sarchashmai hayvon ko‘rub,- tarzida berilgan. Ushbu baytning nasriy bayoniga e’tibor qaratsak: “Xizr o‘ziga tiriklikni abadiy vatan qilgani kabi men ham ayriliq vodiysida Majnundek sovrulaman”. Nashrda “kabi” o‘xshatish vositasi “meni” so‘zi bilan almashgan, bu esa bayt ma’nosiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Mumtoz matnlardagi nafaqat so‘z, hatto bir harfning almashinishi ham uni ma’nodan uzoqlashtiradi, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrdan kitobxonni chalg‘itadi. Bunday “juz’iy” nuqsonlar Nodira devonlari nashrida anchagina.Jumladan, shoiraning **“Bahor keldi”** deya boshlanuvchi g‘azalning yettinchi bayti 1958-yilgi nashrda:

Yuzing nazzorasi **o‘shshoq**larni firdavsi,

Harimi dargahing ahboba jannat-ul-ma’vo,-tarzida berilgan. Mazkur bayt 1963-yilgi nashrda quyidagicha berilgan:

Yuzing nazzorasi **ushshoq**larni firdavsi, Harimi dargahing ahboba jannat-ul-ma’vo.

“Ushshoq” - oshiqlar, “o‘shshoq”ning esa lug‘atlardagi izohi mavjud emas.

Shoiraning **“Beray jon visol ichra”** degan misralar bilan boshlanuvchi g‘azalida ham so‘ztarkibidagi harfning**(x-j)** almashinini sodir bo‘lgan.

Mazkur g‘azal 1958 yildagi nashrda:

Qading misrai sho‘xu **barxastadur,**

Bo‘lib xusi devonidin muntaxab,- tarzda berilgan bo‘lsa, 1963 yilgi nashrda 24- tartib raqamida berilgan bo‘lib, g‘azalning to‘rtinchi bayti quyidagi shaklda berilgan:

Qading misrai sho‘xu **barjastadur,**

Bo‘lib xusn devonidin muntaxab.

Baytdagi **“barjasta”** so‘ziga Porso Shamsiev tomonidan tuzilgan lug‘atda “bo‘rtib turgan , ko‘zga ko‘rinarli” deb izoh berilgan. Baytda mashuqa qaddi shoir devonida “ko‘zga ko‘ringan va ajratib olingan” misraga o‘xshatilyapti. Bu o‘rinda “barjasta” ma’nosini ifodalovchi so‘zni bergan ma’qul.

Keyingi davr atoqli shoirasi sifatida Zulfiyaxonimni tilga olish joiz. Zulfiya butun umri davomida otashin muhabbatiga, o‘sha olovli ishqqa, vafoga sodiq qoldi, Hamid Olimjonning ishlarini sabot bilan davom ettirdi, sadoqatni yuksak e’tiqod darajasiga ko‘tardi. “Toki men hayotman, tiriksan sen ham” deya she’rlarida xitob qilib, hech qachon biror marta ham qiyinchiliklardan nolimay mehnat qildi, armonlardan orzular yasadi, farzandlarini yolg‘iz havas bilan tarbiyaladi, ularni komil inson bo‘lib voyaga yetkazishga harakat qildi va elga qo‘shdi [4].

Zulfiya keng tanilgan jamoat arbobi edi. U Osiyo, Afrika va Yevropaning o‘nlab davlatlarida bo‘lib, xalqaro xotin – qizlar hamda adabiyot namoyondalarining harakatlarida faol ishtirok etgan. Hamma joyda xalqimizning tarixi, madaniyati, ma’naviyati, ishlari,qadriyatlari bilan faxrlanib ularni targ‘ib etdi [5].

Yo‘l uzoq, yo‘l yaqin, boshsiz, so‘ngsiz yo‘l,

Biri tor, biri keng, ravon va so‘qmoq.

Tinglab ko‘r, qarichi ming ertakka mo‘l,

Tug‘ilmoqday farzdir birini o‘tmoq...

Safar! Oz kezdimi adib hayotda,

Qishloqlar, shaharlar, ellarga safar.

Mudom shay siyohday – xayol – qanotda

Taqdirlarga safar, dillarga safar...

Zulfiyaxonim tabiati bahor osmoni kabi tiniq, u kibrni, manmanlikni o‘ziga ravo ko‘rmas, juda kamtar inson edi. Kattayu kichik davralarda shaxsiy yutuqlaridan so‘z ochmas, ammo xalqimizni, adabiyotimizni o‘z darajasiga munosib qilib doim sharaflar edi.

NATIJALAR

Zamonaviy davr shoiralaridan Qutlibeka Rahimboyevaning ayriliq, hijron motiviga alohida to`xtalishni joiz deb topdik. Qutlibeka Rahimboyeva ijodiga nazar tashlasak, ishq va muhabbat mavzusidagi she’rlarida toza qalb, samimiyatga yo‘grilgan hislar, masrurlik, sevgini ulug‘lash, uni ilohiy, aziz ne’mat qadar asramoqlik, shuning bilan birga, boshqa ayol shoiralardan farqli ravishda, tuyg‘u, izhorlarning biroz pardalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shoiraning bu mavzudagi she’rlarining asosiy qismi 1984-yilda chop etilgan “Uzun kunduzlar” to‘plamiga kiritilgan bo‘lib, 30 yoshlar atrofida yozilgan ko‘ngil kechinmalari va ruhiyat manzaralarining ifodasidir. Mazkur kitobidan joy olgan quyidagi she’r so‘zimizning aynan isbotidir:

“Yo‘q” – dedimi **Sizni** –
kimdir.
Bu – yanglish,
mening vujudimda,
mamlakatimda
Siz hali ham **Shohsiz,**
Hazrati Ishq. [5]

Shoiraning mazkur she’ri iyhom badiiy san’ati asosida yozilgan. Iyhom (ar. – shubhaga solish, adashtirish) – bir so‘zni bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq ma’nolarda qo‘llash. Bir qarashda ma’nosi anglashilib turgan so‘z emas, ikkinchi yashirin ma’nosi shoirning asl muddaosi sanaladi [6]. She’r matnida ayni shu badiiy san’atni to‘rt o‘rinda qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz. Bir qarashda shoira go‘yoki ishqqa murojaat qilinayotgandek tuyuladi, ayni holat o‘quvchini chalg‘itadi. Barchamizga ayonki, badiiy adabiyotda, ayniqsa, she’riyatda umuminsoniy tuyg‘ular, mavhum tushunchalar, Vatan va onaga “siz” emas “sen” deya murojaat qilinadi. Ikkinchidan shoira “Siz” deya murojaat qilganda ikkala o‘rinda ham bosh harflar bilan yozilmoqda. Anglashiladiki, sun’iy ravishda jumladagi urg‘u aynan shu so‘zga tushirilmoqda. Keltirilgan dalillar shuni ko‘rsatadiki, lirik qahramon o‘z muhabbati qanchalik yashirin bir tarzda ifoda etmasin, bu so‘zning ostida yashiringan yuksak hurmat, ko‘klarga ko‘tarish va erkalash ma’nolari sezilib turadi. So‘nggi qatorlaridagi “Siz hali ham Shohsiz, Hazrati Ishq” kalimalarini ham yuqoridagi tahlillar asosida injalaganda tahlillar xulosasi yanada oydinlashadi.

Qutlibekaning ayni shu to‘plamga kiritilgan “Siz shuncha yaxshisiz” turkumidagi she’rlarda ham muhabbat va ayriliq motivi asosiy o‘rinda aks etadi. Quyida keltirmoqchi bo‘lganimiz she’rda ayriliq motivining go‘zal tasvirini ko‘ramiz:

To‘xtaysiz yana bir ko‘rgingiz kelib,
Qarog‘ingiz – suvga cho‘kayotgan cho‘g‘.
Tashlab ketmoqlikka ko‘zingiz qiymas,
Olib ketolmaysiz ilojingiz yo‘q. [7]

Shoira ayriliq majburiyatini yelkasiga olgan ikki oshiq ko‘ngilning iztiroblarini barchaga tanish holatlar bilan badiiy bir tilda jonli aks etadi. Shu birgina bandda ifodalangan holat ko‘z o‘ngimizda ekranda yirik planda tasvirlanayotgan kadr misoli

aks etadi. Suyuklisini tark etib ketayotgan oshiq uni yana bir bor ko‘rmoq uchun ortga o‘giriladi. Ayni shu vaqt ko‘zingiz qaroqlariga yosh qalqigan oshiqning ko‘zlariga tushadi. Bu holni shoira “Qarog‘ingiz – suvga cho‘kayotgan cho‘g‘ ” deya tasvirlar ekan, go‘zal san’atlardan biri bo‘lmish tashbehni qo‘llab, qarog‘ini “suvga cho‘kayotgan cho‘g‘ ”ga mengzab, betakror o‘xshatish qiladi. Keyingi ikki misra arosatda qolgan, ikki yo‘l o‘rtasida qolgan oshiqning iztiroblarini, ayanchli qismatini yana-da oydinlashtiradi.

Quyida keltirilgan mazkur turkumdagi ikkinchi she’r yuqoridagi she’rning davomi o‘laroq yangraydi:

So‘roqladim, topdim siz sevgan kuyni,
Siz sevgan gullarni saralab qo‘ydim.
Siz sevgan ranglarda yasatib uyni,
O‘zim ham shu rangda liboslar kiydim.
Lahzalar qalbimga sezdirib kechdi,
Siz bo‘lib tuyildi o‘tgan har sharpa
Eshikni ko‘p marta yugurib ochdim
Va ohista yopdim yana ko‘p marta.
Siz-chi, ostonadan ketdingiz qaytib,
Sog‘inchingiz-u... so‘ngra uzringiz aytib. [8]

Yorning hijron kunlari tasvir etilgan bu she’rda ayriliqdagi kunlar ifodalangan. Bir insonni butun borlig‘i bilan sevgan ayol, aslida o‘zini unutib, ma’shug‘i uchun yashayotgan bo‘ladi. Ayol uni tark etgan oshig‘ini bir kuni qaytar, deya kutar ekan, u sevgan kuylarni topib, yor bo‘lib tinglaydi, o‘zining jismida uni yaratadi. Yorim kelganda xursand bo‘lsin deb, u sevgan gullarni saralab qo‘yadi, u sevgan ranglar bilan uyni yasatib, hatto o‘zi ham shu ranglardagi liboslarni kiyadi. Ammo bu holat bir emas, bir necha marta takrorlangan bo‘lsa, ajab emas. Birinchi bandda ma’shuqaning sog‘inchi kuchsizroq edi. Yorning yaqin, tez kunlarda qaytishiga ishonch bor edi.

Ikkinchi bandda esa sog‘inch haddan osha boshlagan, ayolning ko‘zlari har lahza yo‘lda edi. Har o‘tgan sharpa uning nazarida suyuklisi bo‘lib tuyular va eshikni sog‘inch va umid bilan ko‘p marta ochib, umidsizlik bilan ohista yopardi. Keyingi ikki satrli bandda to‘g‘ridan to‘g‘ri yorga murojaat qiladi. “Siz-chi,ostonadan ketdingiz qaytib, Sog‘inchingiz-u... so‘ngra uzringiz aytib”. Bu jumlalarga kelib sog‘inch alamga aylandi.

Qutlibekaning “Siz shuncha yaxshisiz” turkumiga kiruvchi “Men sizni kutyapman”, “Siz kelar kun”, “Eshikdan kirasiz...”, “Ko‘zingizda tashvish suvrati nechun...”, “Bitta buloqdagi yaproqlar misol...”, “Yilning to‘rt fasli ham...” kabi she’rlari ham ayni mazmunda. Bu she’rlarda ma’shuqa yorning sog‘inchi bilan, “u qaytadi” degan umid bilan yashab, faqat o‘sha bir kunni kutib yashasa, boshqa she’rlarida oshig‘ini bir lahza bo‘lsa-da, baxtli qilish, baxtli ko‘rish uchun har narsaga tayyor mahbubining muhabbati tasvirlanadi.

Men g‘arib emasman, bilsangiz,
Do‘stim ko‘p bu oydin kechada.
Baribir o‘zingiz kelsangiz,

Baridan ketaman, kechaman!

Shuningdek, 1989-yil 35 yoshlar atrofida nashr etilgan “Uyg‘onish fasli” to‘plamiga kiritilgan “Boshimda bir osmon yulduz-sham...” deya boshlanuvchi muhabbat motivi yetakchilik qilgan she’rida ham mahbuba yor visoli uchun dunyolardan kechmoqqa hozir. Qutlibekaning 1991-yilda chop etilgan “Ozodlik” kitobidan olingan quyidagi parchada ham lirik qahramonning hijron kunlari tasvirlanadi:

Eh, siz bormisiz, sizim,
Siz yurasiz, qaylarda?!

“Dunyo shu kech turlandi...” she’ridan olingan ushbu satrlarni shoira 40 yoshlar atrofida bitgan. Ko‘rinib turibdiki, Qutlibeka she’riyatida ayriliq motividagi she’rlar ko‘proq uchraydi.

Sevmaklikdan o‘zga iqtidorim yo‘q –
Telba bir erkakka tegishli qulman.
Umrim sarig‘ kiydi yechib yashil, ko‘k,
Men yolg‘iz muhabbat bilan mashg‘ulman.

Shu to‘plamga kiritilgan navbatdagi “Men” sarlavhali turkum she’rlaridan biri ham tushkunlik ruhida yozilgan. Muhbbatiga munosib javob olmagan lirik qahramon o‘zini malomat qiladi va muhabbtidan yozg‘iradi. Shoira yana bir “Qo‘shiqdan so‘ng...” sarlavhali she’rida muhabbat haqida shunday satrlar bitadi:

“Dunyoda muhabbatdan yiroq hislarning,
“Yiroq tuyg‘ularning o‘lgani yaxshi.

O‘nga yaqin she’riy to‘plamlar sohibasi Qutlibekaning ijodida jo‘shqin muhabbat ruhidagi she’rlari kam bo‘lsa-da, muhabbat mavzusini ichiga oluvchi sog‘inch, hijron, visol va ayriliq motividagi she’rlari asosiy o‘rin egallaydi.

Shu o`rinda yana bir shoira Dilrabo Mingboyevaning hijron nafasidagi ijodidan parcha keltiramiz.

Bir kechada sochim oqardi,
G‘irrom dunyo,
Qaytarib ber qora kunlarni,
Sochlarimni bo‘yamoqchiman [3, 11].

Dilrabo Mingboeva adabiy talqinida tavsif kontrast belgilarni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi: «g‘irrom dunyo» taqdim etayotgan iztirob ko‘lami keng, «qora kunlar» epitetiga yangi ma’no qirrasini yuklagan shoira «yomg‘irlar kuyi»ga ko‘ngil torini sozlashni orzu qiladi. Nahot, «ulkan bo‘shliq – senga urilmoqchunmi?». Muallif so‘z birikmasi vositasida qayta shakllantiradigan sifatlashlardan ruhiyat manzarasini chizishda samarali foydalanadi. Uslubiy qo‘llanma tasvir va ifodani bir-biriga qorishtirib yuboradi, poetik munosabat aniqligi muqoyasa estetik quvvat- hofizasini oshiradi. Tasvir predmeti yorqinligi ijodiy muvaffaqiyatni ta’minlaydi [11].

XULOSA VA MUNOZARA

Bu murakkab hayot qalbi o‘z xalqi va Vataniga mehr – muhabbat bilan to‘lib – toshgan, dunyodan ezgulik va go‘zallik izlab yashagan bu ayolni hamma vaqt ham ayagani yo‘q. Aslida, bu dunyoda ayriliq va hijron azobi barchaning ham boshida bor.

Ammo g‘am – anduh va xasratlarni matonat bilan yengib, tog‘dek bardoshi bilan vafo va sadoqat ramziga aylangan Nodirabegim, Zulfiya, Qutlibeka kabi ayollar xar qanday yuksak hurmat va ehtiromga munosibdir.

Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:

1. Nodira. She’rlar. – T.: O‘z. davlat badiiy nashriyoti, 1998.
2. Nodira. Devon. (O‘zbek va fors-tojik tillaridagi she’rlar). – T.: O‘zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.1993.
3. Nodira she’riyatidan. – T.: O‘zbekiston nashriyoti. 2009.
4. Zulfiya. Baxor keldi seni so‘roqlab. Yangi asr avlodi. Toshkent.
5. Jalilova F. Bu nazm bog‘iga kirolmas xazon. Tong yulduzi. Toshkent.
6. Qutlibeka. Chaqmoqlar fasli. Sahhof, – Toshkent. 2022.
7. Husayniy A.-Badoyi’ us-sanoyi’. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi ASN;
8. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: akademnashr, 2013;
9. G‘aniev I. Afoqova N. Abdullo Orif falsafasi. – T.: Muharrir nashriyoti. 2021.
10. Qutlibeka. Chaqmoqlar fasli. Sahhof, – Toshkent. 2022.
11. Salaev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.